

**JAMOAT HAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA JALB ETILADIGAN
QUROLLI KUHLARNI QO'LLASHNING SAMARALI USUL VA
SHAKLLARI - HORIJY TAJRIBA ASOSIDA**

*Jamoat havfsizligi universiteti magistranti
podpolkovnik - B.N. Azamov*

Annotatsiya

Ushbu maqolada jamoat havfsizligini ta'minlash va jamoat tartibni saqlash hamda fuqarolarni havfsizligini ta'minlash bo'yicha horijiy davlatlarning Qurolli Kuchlarini qo'llash usullari va shakllari atroflicha ko'rib chiqilib ma'zmun- mohiyati va o'ziga hos xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jamoat havfsizligi, jamoat tartibi, havfsizlik, qonun.

Abstract

In this article, the methods and forms of using the Armed Forces of foreign countries to ensure public safety and maintain public order, as well as to ensure the safety of citizens, are thoroughly reviewed, and their content and specific features are revealed.

Keywords: public safety, public order, emergencies, security, law.

Bugungi kunda yurtimizda va horijiy davlatlarda jamoat tartibini saqlash va barqarorligini hamda fuqarolarni havfsizligini ta'minlash hozirgi globallashuv zamonida muhim masalalar hisoblanadi. Ushbu vazifalar bilan shug'ullanayotgan bir qator bo'linmalarni boshqarish turli hil usullar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yo'nalish bo'yicha har bir davlatning tajribalari mavjud bo'lganligini inobatga olib, ilg'or horijiy davlatlarning samarali tajribalaridan eng maqbul shakl va usullarini mamlakatimiz jamoat havfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash tizimiga tatbiq etish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz "Butun dunyoda mamlakat ichida tartib-intizom va jamoat havfsizligini ta'minlash bilan armiya emas, Mudofaa vazirligi emas, balki alohida tuzilmalar shug'ullanadi. Ma'lumki, bugungi kunda biz "Havfsiz shahar – havfsiz mamlakat" konsepsiyasi asosida yurtimizda jamoat tartibini ta'minlashga qaratilgan katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz"[1] deb ta'kidlab o'tganlar.

Jamoat havfsizligi tushunchasi o'zbek tilining izohli lug'atiga muvofiq: "jamoat - arabcha so'z bo'lib, birlashma, uyushma, guruh, ko'pchilikka, ya'ni ommaga tegishli"[2], "havfsizlik - bu havf-xatarning yo'qligi, havf bo'lmagan holat"; "ta'minlash - o'zagi arabcha "ta'min" so'zidan olingan bo'lib, ta'min qilmoq, biror narsaning amalga oshishi, ro'yobga chiqishi, muhayyo bo'lishi uchun zarur sharoit yaratmoq" [3] ma'nolarini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi konsepsiyasiga muvofiq:

Jamoat havfsizligi - jamiyatning qonunga hilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolar, favqulodda vaziyatlar va boshqa tahdidlardan (keyingi o'rinlarda - tahdidlar) himoyalanganlik holati bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi hamda insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarilishini ta'minlaydi;

Jamoat havfsizligini ta'minlash - davlat tomonidan jamiyatni tahdidlardan himoya qilish uchun belgilanadigan hamda doimiy ravishda takomillashtirib boriladigan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa kompleks tashkiliy chora-tadbirlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim[4].

Ushbu tushunchalardan kelib chiqib mamlakatimizda jamoat havfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha horijiy davlatlar tajribalarini o'rgangan holda ularning ilg'or tajribalaridan foydalanish muhimligini hozirgi vaqtda zamoni o'zi taqazo qilmoqda. Ushbu holatlar bo'yicha ko'pgina olimlar ham horij tajribasini o'rganish jamiyatni rivojlantirishning muhim o'rni bo'lishini hamda ushbu yo'nalishlarni belgilab olishini, insoniyat paydo bo'lgan uzoq tarixiy jarayonlaridagi yangilishlar va noto'g'ri hatti-harakatlarni oldini olish imkon berishini, shuningdek, horijiy mamlakatlarning tajribasini diqqat bilan o'rganish va amaliyotda qo'llashda esa har bir davlatning o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish lozimligini ta'kidlab o'tganlar. Ular fuqarolik hokimiyatining eng ko'zga ko'ringan vakillari bo'lib, odatda politsiya tashkilotlari bilan bog'liq modellarni namoyish etganlar. Rus olimi A.N.Badmaev horijda jamoat tartibini saqlash xizmatini tashkil qilish va kuchaytirishga katta e'tibor berilishi hamda qoidaga ko'ra, u huquqni muhofaza qilish organlarida asosiy, mustaqil va juda ko'p sonli tuzilma sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlagan.[5]. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, yuqoridagi mulohazalar hozirgi globallashtirish jarayonida ustuvor vazifalardan biri ekanligini aytib o'tish darkor.

Huquqni muhofaza qiluvchi kuch va tuzilmalarining tashkil etilganidan buyon jamoat havfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlashni tashkillashtirish bir qancha usullarda amalga oshiriladi. Jumladan, fuqarolar g'ayri joylarda piyoda va otliq patrullik xizmatlarini tashkil etish orqali, transport vositalari harakatlanayotgan yo'llarda avto yoki moto patrullarni jalb etilgan holda xizmatlar tashkillashtiriladi. Bunday xizmatlarni tashkillashtirish orqali, huquqbuzarlik va jinoyatchilikning barvaqt oldini olishga imkon beradi.

XX asrning boshlariga kelib, jamoat tartibini saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borildi. Ushbu izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar natijasida jamoat tartibini saqlash va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmat samaradorligi ijobiy tomonga o'zgardi. Shuningdek, horijiy davlatlarning jamoat havfsizligi tizimini o'rgangan ilmiy izlanuvchilar, ya'ni jamoat tartibini saqlash vazifasi yuklatilgan politsiya kuchlari, xususiylar havfsizlik idoralari, turli hil nazorat

hamda tergov vakolatlariga ega hukumat idoralari tomonidan vazifa bajarilsa-da, ushbu organlar tomonidan eng ko'zga tashlangani bu - jamoat joylarida hizmat olib borayotgan piyoda va avtomobillarda patrullik qiladigan jamoat tartibini saqlash politsiya kuchlari hisoblanishini aytib o'tganlar. Ilmiy tadqiqotlar olib borgan hamda ilmiy ishlarni amalga oshirgan quyidagi olimlar V.I.Akulov, J.Yu.Rahimov, I.A.Smorodinskova, A.Yu.Mansurov, A.G.Gvozditsinlarning monografik va maqolalarida o'z aksini topgan.

Horijiy davlatlarning politsiya faoliyatini o'ziga hos hususiyati bu-mamlakat havfsizligini ta'minlash, davlatda huquq- tartibotni saqlash bilan bog'liq jarayon hisoblanadi.

Misol uchun, Amerika Qo'shma Shtatlarida - ma'muriy hududlarda jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash bo'yicha dunyoda o'ziga hos tizim va ilg'or tajribaga ega bo'lgan davlat. AQSH tarixiy rivojlanishi mamlakatda politsiyaning uch bosqichli tizimini shakllantirdi. Bular: federal, individual va mahalliy darajadagi politsiya organlari bo'lib, ularning orasida mahalliy darajadagi politsiya tizimining asosi, ya'ni eng katta qismi (60 foizi)ni tashkil etadi hamda aholi bilan doimiy bevosita aloqada bo'ladi. [6].

Bundan tashqari, Amerika qo'shma shtatlari harbiy tizimida Milliy gvardiyasi qo'shinlari barcha shtatalarda mavjud va tinchlik davrida shatat gubernatorlari ixtiyorida bo'lib, ularning qarorlariga asosan tabiiy ofatlar, terrorizmga qarshi kurashish, hususiy mulkning himoya qilishda ishtirok etadi.[7].

Yana bir armiyasi rivojlangan Fransiya davlati, mamlakatda davlat politsiya tartiboti o'rnatilgan aholi punktlarida politsiya hizmat olib boradi, boshqa barcha hududlarda jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash uchun jandarmeriya javobgar hisoblanadi. Bundan tashqari, davlatda uchinchi politsiya kuchi - Davlat havfsizlik politsiyasi ham mavjud bo'lib, u ommaviy tadbirlar o'tkazilganda va ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelganda jamoat tartibini saqlashda ishtirok etuvchi milliy politsiya tarkibidagi harbiy qism hisoblanadi. Jandarmeriyaning eng asosiy vazifalaridan biri - jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash bo'lib, u odamlar va mulklarning xavsizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, mamlakatda ko'chma jandarmeriyalar faoliyati ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash va havfsizligini ta'minlashdan iborat. Fransiyada patrullik hizmati patrol bo'linmalari tomonidan olib boriladi va ularning faoliyati asosan aholisi 10 mingdan oshiq bo'lgan shaharlarda tashkil etiladi. Patrol bo'linmalari o'z faoliyatini turlicha, hususan avtopatrol, motopatrol, velopatrol, otliq patrol va piyoda patrol shaklida olib boradi. [8].

Yevropa davlatlari orasida jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash sohasida yana bir o'ziga hos tajribaga ega bo'lgan Italiya davlati hisoblanadi. Italiya davlatida politsiya yuqori darajada markazlashgan tizim hisoblanadi. Hozirgi vaqtda politsiya

funksiyasini bajaruvchi quyida keltirilgan uchta huquqni muhofaza qiluvchi organlar mavjud. Ularning barchasi turli hil tashkiliy tuzilmalarga hamda bo'ysunuvlarga ega hisoblanadi.

1. Carabinieri korpusi (Arma dei Carabinieri), (1814 yilda tashkil etilgan);
2. Moliyaviy gvardiya (Guardia Fiscal), (1907 yilda tashkil etilgan);
3. Davlat politsiyasi (Polizia di Stato), (1852 yilda tashkil etilgan).

Jamoat tartibi va havfsizligi sohasidagi vazifalari o'zaro bir-biriga bo'ysunmaydigan bir nechta mustaqil, maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan politsiya tashkilotlari tomonidan amalga oshirilsada, Davlat politsiyasi ularning faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

Davlat politsiyasi birinchi navbatda viloyatlar va yirik shaharlarda ishlaydi va o'zining sho'ba idoralari bilan birgalikda avtomobil yo'llari, temir yo'llar, aeroportlar, bojxona va ba'zi suv yo'llarini patrullik qilish va mahalliy politsiya kuchlariga yordam berish uchun ham javobgardir.

Carabinieri korpusi (Arma dei Carabinieri) politsiyaning keng vakolatlarga ega bo'lgan harbiylashtirilgan tuzilmalaridan biri hisoblanib, ular harbiy vazifalarni bajarishda karabinerlar Mudofaa vazirligiga, politsiya vazifalarini xal qilishda esa Italiya ichki ishlar vazirligiga bo'ysunadi.

Carabinieri korpusi quyidagi funksiyalarni bajaradi:

jamoat tartibini va fuqarolik hamda harbiy mulklarni himoya qilishni ta'minlaydi; uyushgan jinoiy guruxlar tomonidan sodir etilgan va terrorchilik faoliyati bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qiladi.

Shtat politsiyasi (Polizia di Stato) markaziy organ bo'lib, uning faoliyati mamlakatda jamoat tartibini saqlash va jamoat havfsizligini ta'minlashga qaratilgan. [9].

Italiya davlatida yuqoridagi tizimlardan tashqari davlat politsiyasi tizimlariga kirmaydigan va 10 mingdan ortiq odam yashaydigan shaharlarda tashkil qilingan munitsipal politsiya (Corpo di polizia locale)lar ham mavjud bo'lib, ular hokimiyatning byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi va tegishli shahar munitsipalitetiga bo'ysunadi. Ushbu politsiya shaharlarda olib boriladigan turli operativ-tergov va boshqa tadbirlarda davlat politsiyasining zahirasi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi hududda jamoat tartibini saqlashda patrul hizmatini olib borish, shahar hokimining buyruqlarining bajarilishini nazorat qilish, bozorlarda tartibni saqlash, aholi punktlarini sanitariya holatini nazorat qilish va yo'l harakati havfsizligini ta'minlashdan iborat. Ushbu patrul bo'linmalari hizmatni piyoda, politsiyaga mo'ljallangan avtoulovlar va mototsikllarda olib boradilar. Ba'zi shaharlarda ular hizmat itlari hamda otlardan ham foydalanadilar.[10].

Yevropa davlatlari orasida yana bir jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash sohasida yuqori darajada markazlashgan tizim ega bo'lgan Ispaniyada davlatidir. Ispaniyada ikkita idora politsiya faoliyatini amalga oshiradi.

1. Milliy politsiya;
2. Fuqarolik politsiyasi.

Yuqoridagi ikkala idora ham Ichki ishlar vazirligiga bo'ysundiriladi va bosh direktor tomonidan boshqariladi. Milliy politsiya eng kuchli politsiya kuchlari hisoblanib "Grapo espanol de operaciones" ishchi kuchlari kiradi.

Mamlakatda jamoat tartibini saqlash va havfsizligini ta'minlash milliy politsiya tarkibidagi jamoat tartibini saqlash markaziy boshqarmasiga yuklatilgan. Shuningdek, mazkur boshqarma ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash ishlarini tashkil etadi hamda asosiy bino va inshootlarning qo'riqlanishini ta'minlaydi.

Milliy politsiya sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish va sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni oldini olish bo'yicha umumiy majburiyatlardan tashqari, ular o'ziga hos funksiyalarga ham ega va ular quyidagilar hisoblanadi:

shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar berish;

chegara hizmati nazorati;

giyoxvand moddalar kontrabandasi bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni tergov qilish;

boshqa davlatlarning politsiyalari bilan o'zaro bog'liq bo'lgan munosabatlar kiradi.

Ispaniya Milliy politsiyasining tarkibiga quyidagi bo'linmalar kiradi:

mobil batalyonlar;

garnizon batalyonlari;

favqulodda holatdagi otliv bo'linmalar;

umumiy zahira batalyonlari.

Mobil batalonlar to'liq moto bo'linmalari (qo'shinlar) bo'lib, birinchi navbatda jamoat joylarida sodir etilgan tartibsizliklarga qarshi qo'llaniladi.

Garnizon batalonlari turli xajmdagi tezkor politsiya bo'linmalari bo'lib, aholi punktlarida va ularning chekka xududalarida patrullik hizmatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan.

Ko'p aholi istiqomat qiladigan xududlar chekkasida patrullik qilishda otliv qo'shinlar qatnashadi. Ularning asosiy vazifasitinch namoyishlarni zarur yo'nalishlar bo'ylab to'xtatib turish va yo'naltirish, jamoat tartibi va havfsizligi buzilganda esa olomonga ta'sir o'tkazish hamda ularni tarkatib yuborish, bundan tashqari, to'planayotganlarga qarshi kechiktirib bo'lmas choralar ko'rishdan iboratdir.

Umumiy zahira bataloni to'liq motorli, yaxshi jihozlangan "tartibsizliklarni nazorat etish" bo'linmalaridan tashkil topgan. Ular jamoat havfsizligi sodir bo'lgan joylarga zudlik bilan yo'naltirish va darhol politsiya aralashuvi uchun mo'ljallangan

maxsus zarba beruvchi kuch hisoblanadi. Bundan tashqari ular tabiiy ofatlarni oqibatlarini bartarf etishda ishtirok etuvchi kuch hisoblanadilar.

Milliy politsiyaning deyarli barcha vazifalari Ichki ishlar vazirligi va bundan tashqari Mudofaa vazirligi tarkibiga kiruvchi Fuqarolik gvardiyasi tomonidan ham takrorlanadi.

Ispaniyada mavjud bo'lgan fuqarolik politsiyasining dengiz hizmati tomonidan esa hududiy va qirg'oq suvlarida patrullik qilish vazifasi yuklatilgan. [11].

MDH davlatlari orasida jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash bo'yicha yuqori o'rinlarda turuvchi Rossiya Federatsiyasi hisoblanadi. Ushbu davlatda "Fuqarolarning jamoat tartibini saqlashdagi ishtiroki to'g'risida"gi Federal qonunining 11-moddasida jamoat tartibini muhofaza qilishda ishtirok etuvchi huquqni muhofaza qilish ixtisosligidagi jamoat birlashmalari o'zlari tuzilgan hududda quyidagi huquqlarga ega ekanligi belgilangan:

1) huquqbuzarliklar va jamoat tartibiga tahdid to'g'risida ichki ishlar (politsiya) organlarini va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xabardor qilish;

2) jamoat tartibini saqlash chora-tadbirlarida ichki ishlar (politsiya) organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlariga ularning murojaatiga asosan yordam ko'rsatish;

3) ushbu Qonun va boshqa Federal qonunlarda nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

Bulardan tashqari ushbu Federal Qonunning 17-moddasida xalq drujinniklari (ko'chalarda yuradigan fuqarolar) jamoat tartibini muhofaza qilishda ishtirok etganda quyidagi huquqlarga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin:

1) fuqarolardan va mansabdor shaxslardan noqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatishni talab qilish;

2) voqea joyini saqlash, shuningdek, huquqbuzarlik sodir etilganligini tasdiqlovchi ashyoviy dalillarni keyinchalik ichki ishlar organlari xodimlariga topshirish uchun saqlanishini ta'minlash choralari ko'rish;

3) politsiyaga qonun bilan yuklangan jamoat tartibini saqlash sohasidagi vazifalarini bajarishda yordam ko'rsatish.[12].

Osiyo mintaqasining jamoat tartibini va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha yuqori o'rinlarda turuvchi Hitoy Xalq Respublikasidir. Ushbu davlatda ham huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri maxsus rejali yoki stihiyali bo'lishi mumkin bo'lgan ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashni tashkil etishdir. Hitoy xalq politsiyasi bilan bir qatorda, Hitoy qonunchiligida armiyani to'g'ridan-to'g'ri tinchlik davrida, agar kerak bo'lsa, tartibsizliklar va fuqarolar tartibsizliklarini bostirish uchun armiya bo'linmalaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Hitoy Xalq Respublikasida noqonuniy ommaviy norozilik namoyishlarini bostirish

uchun mo'ljallangan davlat muassasasi Hitoy Xalq qurolli politsiyasi (G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi jandarmeriyaga o'xshash) hisoblanadi.

Xalq qurolli politsiyasiga quyidagi vazifalar yuklangan:

markaziy va mahalliy partiya, boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot institutlari, texnik-texnika muassasalari, muhim sanoat korxonlari va aloqa vositalari, horijiy diplomatik vakolatxonalarni muhofaza qilish;

davlat chegarasini qo'riqlash, chegara rejimiga rioya etilishini nazorat qilish, chegaradan o'tayotgan shaxslar va transport vositalarini tekshirish;

jamoat tartibini saqlash, hukumatga qarshi namoyishlarni bostirish, siyosiy raqiblar va jinoyiy unsurlarga qarshi kurashish;

mamlakat hududida favqulodda vaziyatlarda tezkor tadbirlarni amalga oshirish;

tabiiy ofatlarga qarshi kurashni tashkil etish va o'tkazish, ularning oqibatlarini bartaraf etishda tartib va havfsizlikni ta'minlash;

jinoyiy va hukumatga qarshi tashkilotlarni tugatishda ishtirok etish;

jinoyatchilarni qidirish, ushlab va kuzatib borish chora-tadbirlarini amalga oshirish. [13].

Osiyoda mintaqasida yana bir jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash sohasida o'z tajribasiga ega bo'lgan davlat Yaponiyadir. Yaponiyada jamoat tartibi va havfsizligini ta'minlash politsiyaning quyi bo'g'inlari - politsiya post va punktlari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatda jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish politsiya faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilishini yaxshi tushungan Yaponiya hukumati aholi turar joylarida politsiya post (Koban) va punktlarining faoliyatini yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratgan. Yaponiyada politsiya post va punktlarida xizmat olib boruvchi patrul-post xizmati xodimlari o'zlariga birlashtirilgan hududlarda patrullik qilishda doimiy ravishda har bir oila, korxonalar, muassasa va tashkilot bilan ish olib boradilar. Xizmat davomida patrul post xizmati xodimlari aholi o'rtasida profilaktik suhbatlar o'tkazib, ularni kerakli axborot bilan ta'minlaydilar, shuningdek jamoatchilikning politsiya faoliyatiga doir fikrini o'rganib boradilar. Mamlakatda jami hibsga olingan huquqbuzarlarning o'rtacha 65 foizi patrul post xizmati xodimlarining hissasiga to'g'ri kelishini ta'kidlaydi. [14].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni inobatga olgan holda quyidagi umumiy hulosalarni keltirib o'tish o'rinli deb hisoblanadi:

birinchidan, dunyoning yetakchi rivojlangan davlatlarning huquq tartibot idoralari, davlatning tuzilishi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar funksiyalari va yuklatilgan vazifalaridan kelib chiqib o'ziga hos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Har bir davlatning bir-biridan farqlovchi o'ziga hos xususiyatlari mavjud bo'lsada, ular tomonidan bajariladigan vazifalar ko'lami hamda jamoat tartibini saqlash hamda havfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy qonunchilik normalarining hayotda tutgan o'rniga qarab bir-biridan farqlanadi;

ikkinchidan, jamoat tartibini saqlash va havfsizligini ta'minlash bo'yicha rivojlangan davlatlar ilg'or tajribalari hamda kuch tuzulmalarni qo'llashning samarali shakl va usullarini tahlil qilish orqali, mamlakatimiz jamoat tartibi saqlash va havfsizligini ta'minlash bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishimizni davrni o'zi talab etmoqda;

uchinchidan, Qurolli Kuchlarni tinchlik vaqtida davlatning ichki havfsizligini ta'minlashga jalb etish amaliyotini o'rganish bilan birga, har bir kuch tuzilmani funktsiya va amalga oshiradigan vazifalarini bugungi zamon talabidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish hamda javobgarlik hududlarini chegaralarini aniq belgilab berish oldimizda turgan ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2018 yil 10 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Havfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida so'zlagan nutqi. KUN.UZ saytidan olingan. (murojaat qilingan sana 2023 yil 12 oktabr).

2. O'zbek tilining izoxli lug'ati. 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. ma'sul muharrir A. Madvaliyev. – T.: «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat qilingan sana 2023 yil 23 oktabr).

3. O'zbek tilining izoxli lug'ati.: 80000 ra yaqin so'z va so'z birikmasi ma'sul muharrir A. Madvaliyev. - T.: «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitary korxonasi. (murojaat qilingan sana 2023 yil 23 oktabr).

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Jamoat havfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" gi PF-27-son farmoni [Elektron manba] // URL: <https://lex.uz/pdfs/5749291> (murojaat qilingan sana 2023 yil 14 oktabr).

5. Rahimov J. YU. Jamoat tartibi va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or horijiy tajribalar tahlili (2022 yil 17 iyun kunidaga Barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnalidan). [Elektron manba] // www.sciencebox.uz/. (murojaat qilingan sana 2023 yil 14 oktabr).

6. Rahimov J. YU. Jamoat tartibi va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or horijiy tajribalar tahlili (2022 yil 17 iyun kunidaga Barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnalidan). [Elektron manba] // www.sciencebox.uz/. (murojaat qilingan sana 2023 yil 14 oktabr).

7. И.А. Смородинскова Национальная гвардия США: «Организационно-правовой аспект деятельности: монография» // И.А. Смородинскова, А.В. Выков. М.: ВНИМ МВД Россий, 2004 г. ст. 97. (Мурожаат этилган сана 2023 til 15 oktabr.)

8. В.И. Акулов «Полицейский силы зарубежных стран-режим доступа» http://www.nbpublish.com/pdماغ/contents_2011_1.html/. (Мурожаат этилган сана 2023 til 6 oktabr.)

9. Материал из Википедии – свободной энциклопедии. (электронный ресурс). – режим доступа: Osee.org/ https://ru.wikipedia.org/wiki/Politsii_Italii . (Мурожаат этилган сана 2023 til 6 oktabr.)

10. Rahimov J. YU. Jamoat tartibi va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or horijiy tajribalar tahlili. rejim dostupa www.sciencebox.uz/. (Мурожаат этилган сана 2023 til 4 oktabr.)

11. А.Г. Гвоздицым “Прицип построения полицейских систем за рубежом. Их место в структуре МВД. Аналитичкий обзор”. // А.Г. Гвоздицым . М.: ВНИМ МВД Россий, 2005 г. ст. 33. (Мурожаат этилган сана 2023 til 15 oktabr.)

12. Федеральный Закон Российская Федерация от 2 апреля 2014 года № 44-ФЗ “Об участии граждан в охране общественного порядка” http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_161195/.(Мурожаат этилган сана 2023 til 11 oktabr.)

13. А.Ю.Мансуров “Организация деятельности Народной вооруженной полиции Китая в борьбе с массовым беспорядками”.// А.Ю. Мансуров (Электронный ресурс.) – Rejim dostupa: http://www.juristlib.m/book_5668.html. (Мурожаат этилган сана 2023 til 15 oktabr.)

14. Rahimov J. YU. Jamoat tartibi va jamoat havfsizligini ta'minlash bo'yicha ilg'or horijiy tajribalar tahlili (2022 yil 17 iyun kunidaga Barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnalidan). [Elektron manba] // www.sciencebox.uz/.(murojaat qilingan sana 2023 yil 14 oktabr).